

SHAYX AHMAD TAROZIYNING “FUNUN UL-BALOG‘A” ASARIDA TALQIN AN‘ANAVIYLIGI

Boyzoqova Dilnavoz Uzoq qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi
E-mail: afifa2480@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida badiiy san’atlar talqinining an’anaviylik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarning Sharq mumtoz poetikasi bilan bog‘liqligi, nazariy asoslari hamda unda qo‘llanilgan manbalar tizimi yoritiladi. Shuningdek, muallifning arab, fors va turkiy adabiy an’analaridan foydalanish usullari ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: balog‘at, poetika, an’anaviylik, Taroziy, badiiy san’atlar, nazm, nasr, tajnis, tashbeh.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности традиционности интерпретации художественных средств в произведении Шейха Ахмада Тарази «Фунун ул-балого». Освещается связь произведения с классической восточной поэтикой, его теоретические основы, а также система использованных источников. Кроме того, с научной точки зрения обосновываются методы использования автором арабских, персидских и тюркских литературных традиций.

Ключевые слова: балогат, поэтика, традиционность, Тарази, художественные средства, назм, наср, таджнис, ташбих.

Annotation: This article analyzes the traditional features of the interpretation of rhetorical devices in Sheikh Ahmad Tarazi’s work “Funun al-Balagha.” It highlights the connection of the work with classical Eastern poetics, its theoretical foundations, and the system of sources used. Furthermore, the author’s use of Arabic, Persian, and Turkic literary traditions is scientifically substantiated.

Key words: rhetoric, poetics, traditionality, Tarazi, literary devices, nazm, nasr, tajnis, tashbih.

Kirish. Milliy adabiyotshunoslik sohasida “Funun ul-balog‘a” risolasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, adabiyotshunoslikni o‘rganishda bu asar eng avvalgi va eng asosiysi sanaladi. Adabiyotning har uchala tarkibiy qismlari (ilmi badi‘, ilmi aruz, ilmi qofiya) haqida Taroziy asari keng ma’lumot beradi. To‘g‘ri, “Funun ul-balog‘a”dan oldin ham bu soha bo‘yicha o‘nlab risolalar yaratilgan edi, biroq ularning barchasi yo arabiy, yo forsiy tillarda edi. Taroziy risolasi esa shu tipdagi risolalarning turkiydagi dastlabkisi bo‘ldi va o‘zidan keyin o‘zbek tilida yaratilgan adabiyotshunoslikka oid har qanday ilmiy asar uchun asos vazifani o‘tadi.

Adabiyotlar tahlili. “Funun ul-balog‘a” asari hali tugal o‘rganilgan emas. Ushbu kitob fotonusxasi 1993-yili filologiya fanlari doktori Ergash Umarov tomonidan Alisher Navoiy nomidagi adabiyot instituti kutubxonasiga taqdim etilgan. Asarning ilm ahliga e’lon qilinishida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Abduqodir Hayitmetovning hissasi katta. Olim risola haqidagi ilk ilmiy axborotni “Fan va turmush” jurnalining 1994-yil 1-sonida “Taroziy qomusi” nomi bilan bergan edi. Shu yili “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 18-mart sonida bu haqdagi ma’lumot “Shayx Ahmad Taroziy: “Funun ul-balog‘a” nomi bilan bosilib chiqadi. Asarning 1996-yildagi tabdil qilingan nashri ham A.Hayitmetov boshchiligida amalga oshirilgan. Bundan tashqari, A. Hayitmetov “Adabiy merosimiz ufqlari” [1.19] kitobida ham bu haqda ma’lumot bergan. Bu asarning xorijda ham qiziquvchilari bo‘lib, AQSHdagi Indiana universiteti professori, sharqshunos olim Devin Devis 2005-yilda asar

tahliliga bag'ishlangan "Navoiyning salaflari Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning asarida: XV asrdan buyon Markaziy Osiyo madaniyatshunosligida unutilgan manba" nomli maqola e'lon qilgan. Adabiyotshunos olim, professor H. Boltaboyev "Sharq mumtoz poetikasi" kitobining adabiy turlar, she'r navlari, she'r tuzilishi, aruz ilmi, badiiy san'atlar, qofiya ilmi nomli boblarida "Funun ul-balog'a" matnidan parchalar bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarining an'anaviyligini ochish maqsadida sharq mumtoz poetikaga doir ko'plab risolalar o'rganib chiqildi. Mazkur asar yuzasidan qilingan tadqiqotlar, dissertatsiyalar bilan tanishib chiqilib, barchasini analiz va sintez qilgan holda maqolaning obyektiga yondashilgan.

Tahlillar va natijalar. Shayx Ahmad Taroziy "Funun ul-balog'a"ni yaratishda o'zigacha yaratilgan Sharq mumtoz poetikasiga doir, xossatan, balog'at ilmiga doir barcha manbalar bilan tanish bo'lgan. Nazariyotchi olim ma'lum bir poetik birlikni tushuntirishda salaflaridan unchalik farqlanmasligi ko'zga tashlanadi.

Boshqa nazariy manbalar kabi muqaddimasida Olloh taologa hamd, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga na't bilan boshlab, roshid xalifalar, sahobalar va tobe'inlarni hurmat bilan yodga olib, asar yaratilish sabablari, uning ahamiyatini aytib, zamonasining podshosi Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning maqtovi va duosi bilan muxtasar qiladi. Ahmad Taroziy o'tmishdoshlari kabi nasr va nazm haqidagi qarashlarini bayon qiladi: "...Va ulamo qoshinda nutq ikki nav'dur: nasr va nazm. Onikim, istisnob bobinda murattab ko'rdilar, "nazm" atadilar. Va onikim, avroq bisoqinda parishon topdilar, "nasr" dedilar.

Qit'a:

Nazm tovisist dar bog'i balog'at jilvagar,

K-az kamoli jilvayi u aqli kull shaydo shaved.

Nasr dar bo'stoni xotir to'tiyi shirinnavost;

Z-on sabab ta'siri fahm az ne'matash paydo shavad.

(Balog'at bog'ida nazm tovis singari shunday jilvalar qiladiki,

Uning bunday yetuk jilvalari har qanday aqlni o'ziga shaydo etadi.

Nasr esa fikr bo'stonida to'tiga o'xshab shirin so'zlik ko'rsatadiki,

Shu sababdan, buning ne'mati tufayli / bir narsani / tez tushunib olish mumkin/)

Agarchi kalomi Izidi va ahodisi nabaviy vositasindin nasrning sharafi nazmg'a (nisbatan) sobitdur, ammo hakimi alimg'a nazmda hikmatdur, zerokim har johili laim anga yo'l topmas. Bas, ma'lum bo'ldikim, har odamekim, insoniyat yaqosidin bosh chiqorur, anga nazm va nasrning qoidasin bilmaktin gurez yo'qtur. Va (burun) kechgan fusaho va bulag'o bu ma'nidin nasr va nazmning kayfiyatinda qoidalar tarkib etib, risolalar tartib qilib / durlar/..." [2.31]

Yuqorida ko'chirmadan xulosa qilishimiz mumkinki, Taroziy muayyan tartiblangan mantiqiy izchil jummalarni "nazm" deb, ma'lum bir lafzlar yig'indisini esa "nasr" deb nomlamogda. Qur'oni karim va hadisi shariflarda nazmdan ko'ra nasrda ekanligini aytib, hakim zotlar uchun nazm afzal ekanini ham ta'kidlab o'tadi.

Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari boshqa tildagi, xususan, fors poetikasiga doir ilmiy risolalardan arab adabiyoti, fors adabiyoti nazariy tafakkuridan oziqlangan holda, turk adabiyoti va qonuniyatlari bilan qorishiq holda yaratilgani bilan imtiyozlidir.

Ilmiy risolaning badiiy san‘atlarga bag‘ishlangan bobida har bir san‘at turini tushuntirishda an‘anaviylikka amal qilgan holda, avval ilmiy terminning lug‘aviy ma‘nosini keltirib, so‘ng istilohiy ma‘nosini qisqa va lo‘nda tushuntiradi. Masalan, tarse‘ san‘atini quyidagicha bayon qiladi: “...lug‘atta oltun, kumushga javohirni o‘rnatmoqni aytur. Va istiloh birla tarse‘ ul bo‘lurkim, har kalimakim, avvalg‘i misra‘da kelur, so‘ngg‘i misra‘ning har kalimasin ul kalimalarning muqobalasinda kelturub, vanz birla muvofiq va lafz birla muttafiq va oxir harf birla muttahid qilurlar...” [2.85] Muallif badiiy san‘atlarni salaflari kabi lafziy, ma‘naviy yoki mushtarak san‘atlar kabi turlarga ajratmagan. “Funun ul-balog‘a”dan keyingi davrda yaratilgan Atoulloh Husayniyning “Badoye‘ us-sanoye” asarida shunday tasniflanadi. Namuna sifatida avval Qur‘oni karim va hadisi sharifdan, undan so‘ng esa arabiy hikmatli so‘zdan yoki forsiy she‘riy parcha bilan o‘z qarashini quvvatlaydi. Ushbu asarni yozishda Shayx Ahmad Taroziyning nazariy bazasidan tashqari balog‘at ilmi bilimdonligi bo‘lganini poetik birliklarga namuna sifatida istifoda etilgan manbalar quyidagilardan iborat:

1. **Qur‘oni karim.** Ushbu ilohiy kitobdan quyidagi o‘rinlarda namunalar keltiradi: tajnis ul-xat san‘atini talqin qilishda ilmiy istilohning nazariyasi keltirilganidan so‘ng, quyidagi parcha keltirilgan:

“Va summa yahsabuna va hum yuhsinuna sun’an”

/Ular nodonliklari sababli o‘zlarini chiroyli va yaxshi amal qilayotgan kishilar deb hisoblaydilar”. [2.91] Tashbeh san‘ati uchun namunalaridan biri:

“Val-qamaru qaddarnahu manozila hatto a‘adakal-urujunul-qadim”.

/Biz oyni ham toki u eski xurmo butog‘i kabi bo‘lib qolgunicha bir necha manzilga belgilab, tayinlab qo‘ygandirmiz”/. [2.94]

“Saj‘ ul-mutavosiy”ni tushuntirishda Qu‘roni karimdan quyidagi parchani keltiradi:

“Val-a‘diyati zabhan falmuriyati qadhan faasarna bihi naq’an favasatna bihi jam’an”.

“Harsillab chopadigan, chaqmoqlar chaqadigan, tong paytida bostirib boradigan, bas o‘shanda chang-to‘zon ko‘tarib, shu bilan dushman jamoasining o‘rtasida kirib keladigan otlarga qasam”. [2.137]Shu kabi misollar jami o‘n ikki nafarni tashkil etadi.

2. **Hadis.** Muayyan badiiy san‘at uchun namuna sifatida Muhammad alayhissalomdan ham hadislar keltirilgan: Maqbul ul-ba‘z san‘atini tushuntirishda quyidagi hadis keltirilgan: “...Rasul hadisidin – alayhissalom – Nasr:

Allahuma ustur avratana;

Va omin rav‘otana.

/Ey Xudo yopdin bizning avratlarimizni;

Tinch saqlagin bizning qalblarimizni/". [2.110]

Mutazalzil san'ati haqida so'z borganda, ushbu hadis havola qilingan: "Rivoyat qilurlarkim, bir kimarsa Rasul alahis-salom vaqtida bu oyatni /60b/ o'qur erdikim:

"Innalohu bariun min al-mushrikin va Rasulahu".

/“Albatta, Olloh bezordur muhsriklardan va Rasuli ham./ “Lom” لَمْ / ni maftuh /

“Rasulohu” / o'qudi ersa, Rasul alayhis-salom amiral-mo'minin Alig'a, - raziyallohu anhu-buyurdikim: “Unhu, yo Aliyi Murtazo”.

/Ey Ali, nahv bilan shug'ullan!/
Ali nahv /grammatika/ ilmin andin so'ngra paydo qildi va munda “lom”ni maftuh o'qusa, xavfi kufrdir”. [2.118]

“Radd ul-ajz alos-sadr”ni tushuntirar ekan, quyidagi hadisni keltiradi: “...Rasul Alayhissalom hadisni:

“Talaba mulkahum fasalaba mo talab ava nahaba mo lahum, favasaba monahaba”.

/Mulklarni /u/ talab qildi, bas, talab qilgan narsalarini tortib oldi va mollarini taladi va tarqatib yubordi/”. [2.130]

Buning isbotini tarse' san'ati (tarse' san'ati Umar Rodiyoniyning “Tarjimon ul-balog'a” asarida ham kelgan) ta'rifida ko'ramiz: “Tarse' – lug'atta oltun, kumushga javohirni o'rnatmoqni ayturlar. Va istiloh birla tarse' ul bo'lurkim, har kalimanim, avvalg'i misra'da kelur, so'ngg'i misra'ning har kalimasin ul kalimalarning muqobalasinda kelturub, vazn birla muvofiq va lafz birla muttafiq va oxir harf birla muttafiq va lafz birla muttafiq va oxir harf birla muttahid qilurlar, netokkim “Kalomi majid” va “Furqoni hamid”ta kelib tur / 41a/:

“Innal-abrora lafi na'im

Va innal-fujjora lafi jahim”.

/Yaxshilar jannatiydir, buzuqlar do'zaxiy/
...Misoli digar. Rashid Vatvot aytur:

Hech dardi ba tu, ey moyayi darmon mirsod,
Hech kardi, ba tu, ey chashmayi hayvon mirsod.
Misoli digar. Rasul alayhissalom:
“man a'to'a g'azabahu azoa adabahu”.

/G'azabiga itoat qilgan kishi adabini zoye' qilibdi/.

Arab fozillari aytur:

“Al-oqilu yaftoxiru bil-himomil-o'liya, lo birimamil-boliya”.

/Oqil oliy himmatligi bilan faxrlanadi, tashlandiq jasaki bilan emas/. [2.85]

Aksar o'rinlarda turkiy parchalardan ham foydalanadi. Shayx Ahmad tajnis turlarini bayon qilarkan, tanjis un-noqis haqida quyidagilarni yozadi:

“Bizga bor javrung vafodin yaxshiroq.

Qilmog'il, ey turk, bu odatni tark.

Bu nav' aningtek bo'lurkim, ul ikki lafzkim, biri birining mutajonisidir. Hurufi "to" muttafiq bo'lurlar va harakatta muxtalif, netokkim: turk /ترك/ va tark /ترك". [2.87]

"Funun ul-balog'a" gacha yaratilgan manbalarda tajnisning bir necha turlari sanab o'tiladi. Jumladan, "Al-mo'jam" da ham tajnisning yetti turi ta'riflanadi. Ahmad Taroziy ham tajnisni talqin qilishda uni yetti turga ajratib tushuntiradi: "Tajnis ul bo'lurkim, shoir bayt ichinda ikki kalima kelturkim, biri-birining jinsi bo'lg'ay bir vajhdin. Va bu yetti nav' bo'lur" [2.86] deya tajnisi tom, tajnis uz-zoyid, tajnis un-noqis, tajnisi ul-murakkab, tajnisi ul-mukarrar, tajnisi ul-mutarraf, tajnisi ul-xat kabi turlarini keltirib, barchasini an'anaviy yo'sinda baytlar namunasi tushuntiradi. Yana bir e'tiborga molik jihati shundaki, badiiy san'atlarni nomlashda Ahmad Taroziy to'g'ridan to'g'ri arabiy istilohlardan foydalangan bo'lsa, "Al-mo'jam", "Badoye' us-sanoye" larda esa forsiy izofadan foydalangani ravshanlashadi.

"Radd ul-ajz alos-sadr" san'atiga "Funun ul-balog'a" da quyidagi ta'rifni beradi: "bu aningtek bo'lurkim, baytning qofiyasini sadrda rad qilurlar. Bu olti nav' bo'lur". [2.129] Ushbu san'atning olti turi haqida so'z yuritib, boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq, ularni nomlamagan. Bu talqin ham an'anaga mosdir.

3. **Arabiy hikmatlar.** Olim she'riy san'atlarni ifodalashda, arab xalq og'zaki ijodidan parchalar keltiradi. Bu esa Shayx Ahmadning arab adabiyoti va folklorining ham bilimdoni ekanidan dalolat beradi. Ammo forsiy va turkiy adabiyot namunalari kabi bayt muallifini keltirmasdan, "arab fasihtarindin aytur" deya umumlashtirish yo'lidan boradi. Tajnis ul-tomni tushuntirishda quyidagi baytni keltiradi:

"Al-mar'at ussalitatu hayyat un-tas'o, modomat hayyatan as'o".

/Pastkash ayol ilondek harakat qiladi, modomiki tirik ekan, sharmanda qiladi/. [2.86]

Saj' ul-mutavosiy san'atini dalillashda avval turkiy, so'ng forsiy she'r parchasidan so'ng quyidagi arabcha parchani keltiradi:

"Ollo humma a'ti mittafiqa xalafan va a'ti mumassikan talafan".

/Ey Xudo, o'zinga mos o'rinbosar bergin va mumsikka o'lim ato qil./ [2.137]

4. **Forscha va arabcha nasr namunalari.** "Funun ul-balog'a" da poetik birliklarni talqin qilishda bir necha o'rinda forscha nasr parchalaridan foydalaniladi. Tashbehi tanqis uchun keltirilgan parchalarda avval Qur'oni karimdan, hadisdan parcha havola qilinib, so'ng quyidagi parcha keltiriladi:

"Misoli digar. Nasru qissaxonlar ayturlarkim: "Dar on jang chandon kase kushta shudki, Pushti zamin az xuni kushtagon hamchun lolazor gasht va ro'yi havo az nayzayi dilovaron monandi nayiston shud". [2.95]

Tashbehi muallaq haqida ta'rif berarkan, quyidagi parcha keltirilgan:

"...Forsiy nasr: "Falon chun sherast, agar jang voridi. Va chun abr ast / 46a/, agar guhar boridi".

Asarda forscha nasriy parchalardan tashqari bir o‘rinda arabcha nasriy parchani ham kuzatishimiz mumkin. Maqlub ul-ba’z san’ati uchun keltirilgan parchalar biri quyidagicha:

“...Arablar aytur – nasr:

“Man yarham yurham va men yaxrim yuxram”.

/Rahm qilgan kishi rahm qilinadi. Mahrum qilgan kishi mahrum qilinadi./ [2.110]

5. **Fors adabiyoti.** Sharq poetikasiga doir ko‘plab manbalar qatori, “Funun ul-balog‘a”da ham fors adabiyotiga oid adabiy parchalar foydalangan. Ellikka yaqin forsiygo‘y shoirlar ijodidan parchalar keltiradi. Ular orasidan Rashiddin Vatvot, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiy Ganjaviy, Abulqosim Firdavsiy, Xo‘ja Kamol, Salmon va Xusrav Dehlaviy kabi so‘z ustalarining asarlariga qayta-qayta murojaat qiladi.

6. **Turkiy adabiyot.** Ahmad Taroziyning ilmiy risolasi turkiy tilda bo‘lgani sababli aksar namunalarni turkiy tilda berishga harakat qiladi. Aksar misollarning muallifi keltirilmagan bo‘lsa, ba’zilarida Taroziy taxallusi mavjud. Ayniqsa aruz vazniga bag‘ishlangan bobning katta qismi turkiy tilda. O‘sha davrda ijod qilgan yoxud Taroziygacha ijod qilgan turkiygo‘y shoirlardan Sakkokiy, Lutfiy, Jaloliy, Atoyi, Hoji, Shams Qisoriy, Kamol kabi shoirlar ijodiga ham murojaat qiladi. Ushbu dalillar Shayx Ahmad Taroziyning o‘z davrining adabiy jarayonidan ham yaxshi xabardor ekanligidan dalolat beradi.

Yuqorida sanalgan manbalar tufayli “Funun ul-balog‘a” mumtoz poetikaga doir yaratilgan boshqa risolalardan nafaqat muallifning nazariy bazasining boyligini, balki Qur’oni karim, hadis va boy badiiy adabiyotdan foydalanganligi bilan zalvorli hisoblanadi.

Xulosa. Asar kompozitsiyasi boshqa nazariy risolalardan, so‘zboshi, ya’ni muqaddima qismida Taroziy poetikaning ma’lum bir sohasi haqida ma’lumot bermay, faqat asar yozilish sabablari, muallifning niyatining izhor qilinishi bilan cheklangan. Poetikaning har bir kichik sohasiga alohida bo‘lim ajratib, undan so‘ng o‘z talqinini keltiradi. Boshqa risolalardan esa, Shams Qays Roziy, Atoulloh Husayniy kabi balog‘atshunoslar muqaddimaning o‘zida muallifning aruz haqidagi qarashlari aks etgan. Muallif badiiy san’atlar, aruz va qofiya muammolariga bag‘ishlangan bo‘limlarda an’anaviylik prinsipiga rioya qilgan holda, oldin o‘tgan olimlarning ilmiy yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlaydi va yangi iste’moldagi poetik birliklarga to‘xtalib o‘tishni unutmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
2. Shayx Ahmad Ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog‘a. (“Balog‘at ilmlari”) / - Toshkent: Xazina, 1996.
3. Qur'onshunoslik (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. 2011.
4. <https://xabar.uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-san'at-va-7-08-2018>;